

## **“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga qarorining 8-son qarori**

2021-yil 20-dekabr

Toshkent shahri, Shayxontohur  
tumani, Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

### **KUN TARTIBI:**

1. “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini kamaytirish.
2. E’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini aniqlash.
3. “O‘zkimyosanoat” AJ ustaviga o‘zgartirish kiritish orqali uni yangi tahrirda tasdiqlash.
4. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga o‘zgartirish kiritish.
5. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga kiritiladigan o‘zgartirishlar matnini tasdiqlash.

#### **Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:****

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloq qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiyashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zkimyosanoat” AJ tarkibidagi tashkilotlarning aktivlaridan samarali foydalanish hamda moliyaviy holatini sog‘lomlashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 9-iyuldagagi 432-son qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli umumiyligi nominal qiymati 8 730 600 955 so‘m bo‘lgan 7 624 979 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarni bekor qilish yo‘li bilan jamiyatning ustav fondi 913 074 237 605 so‘m miqdoridan 904 343 636 650 so‘m miqdorgacha kamaytirilsin.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan aktivlarning nominal qiymati (8 730 600 613 so‘m 92 tiyin) va “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalining kamayish miqdori (8 730 600 955 so‘m) o‘rtasidagi 341,08 so‘m miqdoridagi qoldiq farq “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini keyinchalik oshirilishida davlat hissasi sifatida hisobga olinadi.

1.3. “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitali nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan 789 819 770 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarga bo‘lingan miqdori 904 343 636 650 so‘m deb tasdiqlansin.

#### **1.4. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruviga:**

- barcha kreditorlarni ustav kapitalining kamayish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay barcha kreditorlarni bu haqda yozma shaklda ogohlantirsin;

- jamiyat ustav kapitalining kamayishi bilan bog‘liq tegishli hujjatlar vakolatli organlar tomonidan o‘rnatalgan tartibda qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’milasini.

2.1. “O‘zkimyosanoat” AJning ustaviga tegishli o‘zgartirish kiritish orqali jamiyatning nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdori 2 000 000 000 (ikki milliard) dona etib belgilansin.

3.1. “O‘zkimyosanoat” AJ yangi tahrirdagi ustavi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

4.1. “O‘zkimyosanoat” AJ ustav kapitalini kamaytirish maqsadida 7 624 979 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarni bekor qilish orqali avval ro‘yxatdan o‘tgan

aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga (26.06.2020-yildagi P0315-14-son) o‘zgartirishlar kiritilsin.

5.1. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga (26.06.2020-yildagi P0315-14-son) kiritiladigan o‘zgartirishlar matni mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

*Qaror rasmiylashtirilgan sana: 20.12.2021-yil*